

## **SUD HOKIMYATI OCHIQLIGINI TA'MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATI VA JAMOATCHILIK VAKILLARI ISHTIROKINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**Isoqov Ahmadali Komiljon o‘g‘li**  
*TDYU magistratura yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada sndlarda ochiqlikni ta'minlashda jamoatchilik nazorati va jamoatchilik vakillari ishtirokini rivojlanirishni ta'minlash maqsadida, jamoatchilik nazorati vakillari tushunchasi, mazmuni, nisbati va ahamiyatiga oid nazariy va amaliy masalalar, bu masala bo'yicha yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan g'oyalar, taklif va mulohazalar, shuningdek xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi tahlil qilingan. Tahlillar natijasida sndlada jamoatchilik nazorati va jamoatchilik vakillari ishtiroki tushunchasi, mazkur faoliyatning sndlardagi shaffofligi va ochiqlikni taminlashdagi ahamyati, mazmuni, nisbati va tushunchasiga oid nazariy tushunchalar, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq hokimiya, jamoatchilik nazorati, vakillar ishtiroki, odil sudlov, sndlар faoliyati, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish, halollik, shaffoflik, ochiqlik, tadbirkorlar ishonchi, oshkoraliq, axborot texnologiyalari, veb-saytla, huquqiy asoslar, arxivlash, axborotlashtirish, huquqiy hujjatlar, davlat kafolati, xalq hokimiya, referendum.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida jamoatchilik nazorati va uni amalga oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib, "... xalq hokimiyatining eng muhim poydevori sifatida jamoatchilik nazorati institutini kuchaytirish bo'yicha mamlakatimiz Konstitutsiyasining 32-moddasida, shuningdek, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonunlar va boshqa hujjatlarda muhrlab qo'yilgan talablarning ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratamiz", deb alohida ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, Konstitutsiyamizning 32-moddasida belgilangan O'zbekiston fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanliklari, bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlanirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshirilishini nazarda tutuvchi norma mamlakatimizda davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning qonunchilik asoslarini rivojlanirishga xizmat qildi.

Odil sudlov jarayonida jamoatchilik vakillarining ishtiroki – bu davlat hokimiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lmish sud hokimiyati faoliyati ustidan xalq hokimiyatchiligining muhim shakllaridan biri hisob-lanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida ham xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshirilishi mustahkamlab qo‘yilgan. Shuning uchun ham odil sudlovni amalga oshirishda fuqarolarning - xalq vakillarining jalg etilishi demokratik davlatning muhim belgisi sifatida e’tirof etib kelingan. Binobarin, sud ishlarini yuritishda jamoatchilik vakillarining ishtiroki sud tomonidan adolatlari va haqqoniylar qarorlar qabul qilinishiga imkon yaratadi. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan asosiy prinsip talablariga to‘la mos keladi, odil sudlovni amalga oshiruvchi sudlarni aholiga yaqinlashtiradi, qabul qilayotgan qarorlarining haqqoniyligi bo‘yicha yuzaga keladigan shubhalarning oldini oladi. Sudyalarning chetdan bo‘ladigan turli ta’sirlardan himoya qiladi, ish bo‘yicha ishonchli, ob’ektiv, haqqoniylar qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Sud protsessidagi taraf yoki sudlanuvchilarining ishini ko‘rishda sudya bilan bir qatorda o‘z yurtdoshi - xalq maslahatchilarining ishtirok etishi fuqarolarimizda ishning xolis va haqqoniylar ko‘rib chiqilishiga ishonch uyg‘otadi. Boshqacha aytganda, aholining odil sudlovni amalga oshiruvchi sud haqidagi tasavvuri ushbu jarayonda jamoatchilik vakillari – xalq maslahat-chilarining ishtirok etishi bilan ham belgilanadi. Undan tashqari, odil sudlov jarayonlariga xalq maslahatchilarining jalg etilishi aholining huquqiy ongini yuksaltirishdagi muhim faktorlardan biri hisoblanadi.

Sud ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtirok etishi odil sudlovni amalga oshirishning tarkibiy prinsiplaridan biri bo‘lmish – kol-legiallik, ya’ni ishlarni hay’atda ko‘riliши prinsiplarini amalda ta’minkaydi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida sudlar tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik manfaatlarni himoya qilish muhimdir. Shu bois, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali jamoatchilikning sud organ-lari bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minalash, sud organlari faoliyatida qonuniylikka rioya etilishini nazorat qilish dolzarb hisoblanadi. Undan tashqari, sud hokimiyatining ochiqligini oshirishda, aholining sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda jamoatchilik nazoratini ta’minalash mexanizmlarini takomillashtirish taqozo etiladi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda sud hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagagi “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida sud ishlarini yuritish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning shakllari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi veb-saytida sud qarorlarini tizimli ravishda e’lon qilish tartibini bosqichma-bosqich joriy etish; qabul qilingan sud hujjati o‘qib eshittirilganidan so‘ng uning ma’mun-mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirilishini sud amaliyotiga joriy etish; sudlar faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini habardor qilish maqsadida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o‘rinbosarlari tomonidan brifinglar o‘tkazish; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay’atlari tomonidan sud ishlarini nazorat

tartibida, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan sud ishlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rib chiqish amaliyoti obzorlarini har chorakda e'lon qilish belgilandi.

Shu o'rinda sud faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish boshqa davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga qaraganda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishiga ham e'tibor berish kerak. Zero, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, protsess ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish, davlat siri, farzandlikka olish siri, tijorat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni saqlash zarurati mavjudki, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayonida ushbu holatlar e'tiborga olinadi.

Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning ishtiroki masala-lari hozirgi kunda ko'plab yuridik adabiyotlarda qator mualliflar tomonidan ham ko'rib chiqilgan. Xususan, V.I.Bodashxanovning yozishicha, odamlarning odil sudlovda ishtirok etishi sud va huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini nazorat qilishda ko'rsatiladigan fuqarolik burchini faol bajarishni anglatadi. I.A.Ognevaning fikricha, bu sudda ish yuritishni tartibga soluvchi qonunlarni jamoatchilik tomonidan muhokama qilish va uni tushunish, sud jarayonini amalga oshirishda faol yordam berish, uning ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, protsessning boshqa ishtirokchilariga ularning huquq va erkinliklarini ta'minlanishida yordam berishdan iborat.

Undan tashqari, odil sudlovning ochiqligi haqida gap ketganda, fuqarolarning hech qanday to'siqlarsiz sud binosiga kirish, sud muhokamalarida bemalol ishtirok etish, ish materiallari bilan tanishish erkinligi kabi tarkibiy qismlarga ham e'tibor qaratish lozim.

Xorijiy davlatlarda odil sudlovni amalga oshirishda xalq vakillari-ning ishtiroki ayrim toifadagi sud ishlarida sud maslahatchilarining (sheffen) ishtirok etishida namoyon bo'ladi. Xususan, Kanada, Fransiya, Gresiya, Italiya, Yangi Zelandiya, Rossiya, Germaniya, Angliya, AQSh kabi davlatlarda sud protsessida jamoatchilik nazoratining muhim ko'rinishlari-dan biri sifatida sud maslahatchilari (sud prisyajnyx) keng joriy etilgan va ushbu davlatlar amaliyotida ko'p yillar davomida amal qilib kelmoqda.

Fransiyada jinoyat ishlari sudda professional sudyalar va sud maslahatchilaridan iborat hay'at tarkibida ko'rildi. Sud maslahatchilari ayrim toifadagi, xususan, 10 yil ozodlikdan mahrum qilish (jismoniy shaxslar uchun) yoki 75000 € miqdorida jarima solish (yuridik shaxslar uchun) to'g'risidagi jinoyat ishlarining ko'rilihida ishtirok etadi. Fransiyada 16-18 yoshli voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan og'ir jinoyatlar uchta malakali suda va to'qqizta sud maslahatchilari ishtirokida ko'rildi. Mabodo, suda sud maslahatchilarisiz, o'zi yakka tartibda voyaga yetmaganlar-ning jinoiy nojo'ya harakatlariga doir ishlarni ko'radigan bo'lsa, bu holda suda sudlanuvchiga nisbatan faqat tarbiyaviy va nazorat choralarinigina qo'llay oladi.

Angliyada sud maslahatchilari (prisyajniylar) qotillik jinoyatlarini, tabiiy bo'limgan yoki gumonli o'lim yoki o'limning sababi aniqlanmagan holatlarni tekshirishda ishtirok etadi.

Ayrim Yevropa davlatlarida ishlarning og'ir-yengilligiga qarab ish sudda yakka suda yoki hay'at tartibida ko'riliши amaliyoti mavjud. Xususan, Avstriya, Daniya va Norvegiyada og'ir jinoyat ishlari sud maslahatchilari tomonidan ko'rildi. O'rtacha og'ir jinoyat ishlari esa suda va sud maslahatchilari ishtirokidagi hay'at tartibida, uncha og'ir bo'limgan jinoyat

ishlari esa yakka sudyu tomonidan ko‘rilishi belgilangan. Shu o‘rinda mamlakatimizda buni aksini ko‘rish mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 13-moddasiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalarga muvofiq, Jinoyat kodeksi 15-moddasining ikkinchi - to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar sudyu tomonidan yakka tartibda ko‘rilishi belgilandi. Unga ko‘ra, 2018 yilning 1 apreledan boshlab og‘ir jinoyatlar birinchi instansiya sudida sudyu tomonidan yakka tartibda ko‘riladi. Xalq maslahatchilari faqat o‘ta og‘ir jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga jalg etiladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda jinoyat protsessida yakka sudyu tomonidan ko‘riladigan ishlar doirasi kengayib borayotganligini ko‘rsatadi. Bu an’ana hozirgi davr talablariga, xususan, sud hokimiyati ochiqligini ta’minalashda jamoatchilik nazorati va jamoatchilik vakillari ishtirokini rivojlantirish tengden-siyalariga muvofiq emas.

Yevropaning aksariyat davlatlarida xalq sudyasi, sud maslahatchilari professional sudyu bilan shaxsning aybdor yoki aybdor emasligi, shuningdek sudlanuvchiga jazo chorasi belgilash bilan bog‘liq masalani birgalikda hal etadi. Buyuk Britaniyada fuqarolik ishlarning ko‘rlishida sud maslahat-chilari nafaqat u yoki bu taraflar uchun fuqarolik-huquqiy oqibatni vujudga keltiruvchi qaror qabul qilishadi, balki shu bilan birga zararni undirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini ham qabul qilish vakolatiga ega. Boshqacha aytganda, agar professional sudyu zararni undirish lozimligi haqida to‘xtamga kelsa, sud maslahatchilari zararni qancha miqdorda undirish lozimligini belgilashlari mumkin.

Aholining odil sudlov jarayonlaridagi ishtirokining turi, shakli va vositalari muayyan davlatning siyosiy rejimi, siyosiy madaniyati va amaldagi siyosiy tizimiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, AQShda ayrim Yevropa davlatlari tajribasidan farqli ravishda olti yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llaniladigan jinoyat ishlarning sudlarda ko‘rlishida fuqaro-larga sud maslahatchilari ishtirokida ishni ko‘rish huquqi beriladi. Biroq maxsus sud tomonidan harbiy xizmatchilar ishtirokida ko‘riladigan harbiy xizmatchilar ishi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar bundan mustasno. AQShda har bir shtat sudda ishtirok etadigan sud maslahatchilarining sonini mustaqil belgilaydi. Yaponiyada xalq sudyalarini og‘ir jinoyat ishlarning muhokama-sida sudyu sifatida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lib, xalq sudyalarining sudlov hay’ati tarkibi oltita xalq sudyasi va uchta professional sudyadan iborat bo‘ladi. Ayblanuvchi xalq sudyasidan voz kechish huquqiga ega emas.

Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokining muhim modeli bo‘lmish xalq maslahatchilari odil sudlovni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida fuqarolarning manfaatini o‘zida namoyon qilib, aholining sud tizimiga bo‘lgan ishonchini oshishiga xizmat qilib kelayotganligi sir emas. Buni Yevropa davlatlarida jamoatchilik nazoratining muhim ko‘rinishi sifatida fuqarolarning sud protsesslarida ishtirok etishining qonunchilikda qatiy mustahkamlab qo‘ylganligi va bu o‘z navbatida odil sudlovni tashkil etish va uni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning manfaatini namoyon qilib, pirovardida aholining sud tizimiga bo‘lgan ishonchini oshib borishida ko‘rish mumkin.

Shunday ekan, yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlarni hamda xorijiy davlatlar qonunchilagini umumlashtirgan holda shuni ta‘kidlash kerakki, fuqarolarning odil sudlovni amalga oshirishda ishtirok etishi-ning asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu odil sudlovni amalga

oshirishda sud ishlarini yuritishning turli darajalarida xalq maslahatchilarining ishtirokini kengaytirish ekanligi haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi.

Ma’lumki, mamlakatimiz qonunchiligidagi odil sudlovni amalga oshirish-da xalq maslahatchilarining ishtirokiga doir normalar mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunida Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat, Toshkent shahar sudlarining tarkibida xalq maslahatchilari ishtirok etishi, 36-moddasida jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi tarkibida xalq maslahatchilari ishtirok etishi, 40-moddada esa, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi hamda hududiy harbiy sudlar tarkibida xalq maslahatchilari ishtirok etishi nazarda tutilgan (29-modda).

Mazkur Qonunning 62-moddasiga ko‘ra o‘ttiz yoshdan kichik bo‘lmagan, fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig‘ilishlarida ochiq ovoz berish yo‘li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi xalq maslahatchisi bo‘lishi mumkinligi, haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan, saylov kunida o‘ttiz yoshga to‘lgan, harbiy qismlar harbiy xizmatchilarining yig‘ilishlarida ochiq ovoz berish yo‘li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud xalq maslahatchisi bo‘lishi mumkinligi, har bir sud uchun xalq maslahatchilari soni sudyalarning tegishli malaka hay’atlari tomonidan belgilanishi, xalq maslahatchilari sudlardagi vazifalarini bajarish uchun yiliga ko‘pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqirilishi, ularning ishtirokida boshlangan sud ishini ko‘rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno ekanligi, shu davrda ularning ish joyidagi o‘rtacha ish haqi saqlanib qolinishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 13-moddasida ish birinchi instansiya sudi tomonidan hay’atda ko‘rilganda sud tarkibiga sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi kirishi, odil sudlovni amalga oshirishda xalq maslahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanishi, ular sud majlisida ishni ko‘rish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda raislik qiluvchi bilan teng huquqqa ega ekanliklari mustahkamlab qo‘yilgan.

Xalq maslahatchilarini saylash saylovini tashkil etish 2014 yil 22 apreldagi O‘zbekiston Respublikasining “Sudyalarning malaka hay’atlari to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-368-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “Sudyalarning malaka hay’atlari to‘g‘risida”gi nizom (yangi tahriri) bilan tartibga solinadi. Unga ko‘ra, xalq maslahatchiliga nomzodlar ko‘rsatish mehnat jamoalari, fuqarolarning yashash joyidagi saylovchilar tomonidan, shuningdek harbiy qismlardagi harbiy xizmatchilarining yig‘ilishlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xalq maslahatchiliga nomzod sifatida mehnat jamoalarida, harbiy qismlarda va fuqarolar yig‘inlarida obro‘si baland, ilmli, jamiyatda obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, voqelikni to‘g‘ri tushunib, unga xolis baho bera oladi-gan kishilar ko‘rsatiladi. Qonunlikka muvofiq, saylov o‘tkazilayotgan joyda eng kamida 100 nafar saylovchi qatnashishi shartligi belgilab qo‘yildi.

Sudyalarning malaka hay’atlari esa xalq maslahatchilarining saylovi haqqoniy va shaffof o‘tishini nazorat qilib boradi.

Ma'lumotlarga qaraganda, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va harbiy sudlar sudyalarining tegishli malaka hay'atlarida 2014 yilning iyul oyigacha 15 744 nafar xalq maslahatchilarini faoliyat ko'rsatib kelgan. 2016 yildagi hisob-kitoblarga ko'ra, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga jami 10 ming nafardan ortiq xalq maslahatchisi saylangan.

Xalq maslahatchilarining jinoyat ishlari bo'yicha sudlardagi ishtiroki shaxs, jamiyat va sud hokimiyati o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkam-lashi barobarida qonun ustuvorligi va ijtimoiyadolatni ta'minlashning muhim omili hamdir. Shuning uchun ham sud hukm va qarorlari kamdan-kam holatlardagina o'zgarayotganida xalq maslahatchilarining salmoqli hissasi borligini soha mutaxassislari ham alohida ta'kidlab keladi.

Mamlakatimizda xalq maslahatchilarini institutining o'ziga xos jihat-lari haqida mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, xalq maslahatchilarining suddagi ishtirokiadolatni qaror toptirish, aybdorga qonun doirasida jazo tayinlashga xizmat qiladi. Zero, xalq maslahatchilarini ish natijalaridan manfaatdor bo'limgan shaxs sifatida sudlanuvchiga qanday jazo tayinlash ko'proq samara berishi haqida fikr bildiradi va bu sud tomonidan inobatga olinadi. Ahamiyatli jihat shundaki, xalq maslahatchi-lari sudyalarning mustaqilligiga mutlaqo daxl qilmagan holda faoliyat ko'rsatadi va bu sud hokimiyati faoliyatining ochiq va oshkorraligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ko'pchilik mutaxassislar xalq maslahatchilarining jinoyat ishlarini ko'rishdagi ishtirokini yanada kengaytirish, xalq maslahatchilarini insti-tutini takomillashtirish lozim degan fikrni ilgari suradi.

Profesor M.M.Mamasiddiqovning fikricha, sud protsessida xalq maslahatchilarining ishtirok etishi sudyaning o'z ustida ishlashiga, o'z bilim va malakasini muntazam ravishda oshirib borishiga, har qanday ishning sud muhokamasiga kiritishdan avval puxta tayyorgarlik ko'rishiga zamin yaratadi.

Shunday ekan, xalq maslahatchilarining sudda ishlarni qonuniy, asosli vaadolatli ko'rilihini ta'minlashdagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda mamlakatimizda xalq maslahatchilarini institutini huquqiy asoslarini takomillashtirish taqozo etiladi.

Hozirgi kunda xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi sndlarda xalq maslahatchilarining ishtirokiga doir maxsus qonunlar qabul qilinganligini, sndlarda jamoatchilik vakillari ishtirokining zamonaviy usul va shakllaridan foydalanim kelinayotganligini ko'rsatadi.

Rossiya Federatsiyasida 2000-yil 2-yanvarda "Rossiya Federatsiyasi umumiylurisdiksiya federal sndlarda xalq maslahatchilarini to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Mazkur Qonun 12-modadadan iborat bo'lib, unda fuqarolarning odil sudlovni amalga oshirish jarayonidagi ishtirokining kafolatlari, xalq maslahatchisi ro'yxatini shakllantirish tartibi, xalq maslahatchilariga qo'yilgan talablar, xalq maslahatchisiga nomzodlarni tanlash, muayyan ish bo'yicha xalq maslahatchisini vazifasidan ozod qilish, xalq maslahatchisini o'z vazifasiga jalb qilish muddatlari, xalq maslahatchisi vakolatini to'xtatish va muddatidan avval tugatish, ularning moddiy ta'minoti, ular mustaqilligi va daxlsizligining kafolatlari bilan bog'liq normalar mustahkamlab qo'yilgan.

Qozog'iston Respublikasida esa 2006-yil 16-yanvarda "Qasamyod qilgan maslahatchilar" to'g'risidagi qonun qabul qilingan. Mazkur Qonunda qasamyod qilgan maslahatchilarining maqomi, ular nomzodini ro'yxatga olish, qo'shimcha nomzodlarni

shakllantirish tartibi, qasamyod qilgan maslahatchilarga qo‘yilgan talablar, fuqarolarning huquq va majburiyatlar, qasamyod qilgan maslahatchilarni ro‘yxatga kiritmaganlik, noqonuniy kiritganlik yoki nomzodlar ro‘yxatidan chiqarish bo‘yicha mahalliy ijro organlari qarorlari ustidan shikoyat berish tartibi, qasamyod qilgan maslahatchilarning huquq va majburiyatlar va ularning ish ko‘rish bilan bog‘liq harakatlarini cheklash masalalari, ularning qasamyodi, fuqarolarning qasamyod qilgan maslahatchi majburiyatini bajarish tartibi va muddati, ularning mehnatiga haq to‘lash, ular mustaqilligining kafolatlari va qasamyod qilgan maslahatchilarning o‘z majburiyatlarini bajarishga to‘sinqilik qilgan shaxslarning javobgarligi bilan bog‘liq normalar o‘z ifodasini topgan.

Umuman olganda, odil sudlovnii amalga oshirish jarayonida jamoatchilik nazoratidan ko‘zlangan maqsad muayyan sud ishi yuzasidan ijtimoiy adolatli va benuqson sud qarorlarining chiqarilishiga erishishdan iborat. Shunday ekan, fikrimizcha, mamlakatimizda nafaqat jinoyat, balki ma’muriy, fuqarolik ishlari bo‘yicha ham xalq maslahatchilarini institutini joriy etish lozim. Manbalarda keltirilishicha, xalq maslahatchilarini dastavval fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda ishtirok etib, asosan yer nizolarini ko‘rishda ishtirok etgan ekan. Shuningdek, ayrim toifadagi fuqarolik ishlarida, masalan meros, nikohdan ajratish, da’voli tartibda ko‘riladigan aliment undirish to‘g‘risidagi ishlarda xalq maslahatchilarining ishtirok etishi maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida ham fikrlar ilgari surilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasining xalq maslahatchilarini to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish vaqt keldi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasining xalq maslahatchilarini to‘g‘risida”gi qonun loyihasi 18 moddadan iborat bo‘lib, unda xalq maslahatchilarini faoliyatining asosiy prinsiplari, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning odil sudlovnii amalga oshirish jarayonida ishtirok etish huquqi, xalq maslahatchilariga nisbatan qo‘yilgan talablar, ularni shakllantirish tartibi, muayyan ish bo‘yicha xalq maslahatchisini o‘z majburiyatini bajarishdan ozod qilish, xalq maslahatchilarini o‘z majburiyatlarini bajarishga jalb qilish muddati, xalq maslahatchilarining huquq va majburiyatlar, ularning vakolatlarini to‘xtatish va muddatidan oldin tugatish, moddiy ta’minoti, mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlari, xalq maslahatchilarini to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik hamda O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish masalalariga oid normalar o‘rin olgan.

## REFERENCES:

1. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda oshkoraliq tamoyili va jamoatchilik nazoratini ta’minalashning dolzarb masalalari / Monografiya. –Toshkent. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”. 2019. – 37 b.
2. Yodgorov X.B. “O‘zbekistonda qonun ustuvorligi yo‘lida hamkorlik” loyihasining axborotnomasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 sentabrdagi “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 avgustdagи “Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3250-sonli qarori.

5. Закон Республики Казахстан от 16 января 2006 года № 121-III “О присяжных заседателях” (с изменениями по состоянию на 07.07.2020 г

6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. –Toshkent, “Adolat”, 2018.

7. Vlasixin V. Virtualnoe puteshestvie rossiyskogo chitatelya po amerikanskim sudam // Rossiyskaya yustitsiya. 2001. №3. –S. 60-63.

8. Barnar K. Puti i sposoby rasprostraneniya informatsii o sudebnix resheniyax v Velikobritanii / V sb.: Sudebnaya praktika kak istochnik prava. –M., 2000.